

**O'BEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI**

**BYUDJET HISOBI VA DAVLAT JAMG'ARMALARI
FAKULTETI
“BAHOLASH ISHI VA INVESTITSİYALAR”
KAFEDRASI**

KURS ISHI

**Mavzu: Erkin iqtisodiy hududlarni rivojlantirishda loyihaviy
moliyalashtirishning ahamiyati**

**Bajardi: Rashidova Sh.
Tekshirdi: Shayakubov Sh.**

Toshkent – 2016

Mavzu: Erkin iqtisodiy hududlarni rivojlantirishda loyihaviy moliyalashtirishning ahamiyati

Reja:

Kirish

1. Erkin iqtisodiy hududlarni tashkil etishning mazmun-mohiyati va ahamiyati
2. Erkin iqtisodiy hududlarni barpo etishning xorij tajribasi
3. Investitsiyalarni loyihaviy moliyalashtirishda erkin iqtisodiy hududlarni qo'llash imkoniyatlari

Xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar ro'xati

Kirish

Hozirgi kunda har qanday davlatning tez sur'atlarda rivojlanishini xorijiy investitsiyalarni jalb etmay turib ta'minlab bo'lmaydi va har qanday mamlakatning iqtisodiy salohiyatini oshirishda investitsiyalarning o'rni salmoqli hisoblanadi. Investitsiyalar milliy xo'jalikdagi takror ishlab chiqarish jarayonlarini ta'minlovchi va ishlab chiqarishning tarkibiy tuzilishini takomillashtirishga xizmat qiluvchi rolini bajaradi.

O'zbekiston iqtisodiyotining, umuman, jahon iqtisodiyotining kelgusi taraqqiyoti, asosan, investitsiyalarga bog'liqligini bugungi kunda deyarli barcha mamlakatlar anglab etganligini nazarda tutsak, hozirgi kunda respublikamiz iqtisodiyotiga investitsiyalarni, xususan chet el investitsiyalarini kengroq jalb etish mamlakatimizda o'tkazilayotgan iqtisodiy islohatlarning samarali ijrosini ta'minlash muhim masalalardan biridir.

Hozirgi kunda respublikamiz iqtisodiyotiga investitsiyalarni jalb qilish va ulardan samarali foydalanish mexanizmini rivojlantirish zaruriyati davr talabi bo'lib qolmoqda.

Lekin, O'zbekiston iqtisodiy islohotlarning bugungi bosqichida ishlab chiqarishning rivojlanishi uchun faqatgina investitsiya mablag'larining o'zi etarli emas, iqtisodiy o'sishning yuqori sur'atlariga erishishda xorijiy menejment va marketingdan foydalanish, eksport salohiyatini yanada oshirish, bozorni import o'rmini bosuvchi tovarlar bilan to'ldirish, iqtisodiyotda raqobat muhitini kuchaytirish, iqtisodiy sub'ektlarning erkin faoliyat yuritishiga imkon yaratish va boshqa omillardan foydalanish maqsadga muvofikdir. Bu muammolarni hal qilish yo'llaridan biri esa mamlakat hududida erkin iqtisodiy hududlarni tashkil etishdir.

Erkin iqtisodiy hudud (EIH) esa, eksportga qaratilgan strategiyaning eng muhim elementlaridan biridir. EIH milliy va xorijiy kapitalni jalb etadi, eksport salohiyatini kengaytiradi, valyuta tushumlarini kirib kelishini ko'paytiradi, yangi texnologiyalarni olib kiradi va ularni amalda qo'llaydi, to'lov balansi ahvolini yaxshilaydi va albatta, yakuniy hisobda milliy iqtisodiyotni rivojlantiradi va uning jahon iqtisodiyotiga integratsiyasini tezlashtirishga olib keladi.

2008 yil 2 dekabrda esa, Prezidentimizning Navoiy viloyatida erkin industrial-iqtisodiy zona tashkil etish to'g'risida Farmoni chiqdi. Unga ko'ra Navoiy viloyatida jahon standartlariga javob beradigan va jahon bozorlarida talab qilinadigan mahsulot ishlab chiqarishni ta'minlaydigan, zamonaviy yuqori texnologiyali ishlab chiqarishlarni tashkil etish uchun xorijiy investitsiyalarni, birinchi galda to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni jalb etish bo'yicha qulay shart-sharoitlar yaratish, shuningdek, Navoiy viloyatining sanoat salohiyatini, ishlab chiqarish, transport-tranzit ijtimoiy infratuzilmasini rivojlantirish maqsadida "Navoiy" erkin industrial-iqtisodiy zona tashkil etilishi ko'zda tutilgan. Ushbu hududga beriladigan imtiyozlar va undagi yaratiladigan qulay sharoitlar potentsial investorlarga real imkoniyatlarni va inqirozning salbiy oqibatlarini engishga hamda yanada raqobatga bardoshli bo'lishlariga yordam beradi.

1. Erkin iqtisodiy hududlarni tashkil etishning mazmun-mohiyati va ahamiyati

Erkin iqtisodiy hududni hududiy-xo'jalik jihatidan ham qadimiy, ham zamonaviy deb atash mumkin. Ularning ildizi qadim o'tmishga borib taqaladi, va mana shu vaqtning o'zida o'z amaliy faoliyatini zamonaviy rivojlanishda boyitadi. Amerikalik olimlar M. Frazze va R. Renalar fikricha erkin iqtisodiy hudud bu – iqtisodiyot rivojlanishi yo'lidagi, odamzodning eng qadimgi va xuddi shu paytning o'zida eng yangi g'oyasidir.¹

Erkin iqtisodiy hududlarning tarixi o'zoq o'tmishdan boshlanadi. 2000 yillar muqaddam, eramizdan avvalgi 166 yilda grek davlati Delosda birinchi marotaba hujjat asosida, savdoni engillashtirish maqsadida erkin iqtisodiy hududni tashkil qildilar. U erdagi savdogarlar soliqlardan, bojlardan va ma'muriy rasmiyatchiliklardan ozod etilgan.

XII-XIII asrlarda erkin savdo hududlari faoliyat yurita boshlagan. Erkin savdo hududlari G'arbiy Divana daryosi bo'ylarida paydo bo'lgan. bu daryo o'rta asrlarda eng muhim savdo yo'liga aylangan. U Arab Xalifaligini sharqiy slavyan dunyosi bilan bog'lagan. G'arbiy Dvina va uning yon atroflaridagi quruqliklar ham erkin savdo hududlari deb e'lon qilingan.

Boshlang'ich erkin iqtisodiy hududlar deb, daryo bo'yidagi yirik portlarda joylashgan mahsus territoriyalar, temir yo'l zanjirlari, aeroportlar yoki ularga tegishli bo'lgan rayonlar hisoblangan. Ular xorix mahsulotlarini olib kirish, olib chiqishda erkin va boj to'lovlaridan ozod qilingan, mamlakatning bojxona territoriyasidan ajratib olingan hududlardir.

Bunday hududlar hozirgacha saqlanib kelgan. U erda tovarlar chegaralangan yoki cheklanmagan muddatgacha omborxonalarda saqlanadi, taqsimlanadi, qayta taqsimlanadi va qayta ishlab chiqiladi, so'ngra shu mamlakat ichki bozoriga boj to'lovi bilan etkaziladi yoki boj soliqlarisiz chetga olib chiqib ketiladi.

Bunday iqtisodiy hududlardan foydalanish mol etkazib beruvchilar uchun ancha qulay bo'lgan, chunki ular tovarga etarlicha talab va albatta unga mos ravishda narhning ham ko'tarilishini, tovarni sotmasdan kutib turish, mahsulotni ulgurji xaridorlarga taqdim etish imkoniga ega edilar.

Keyinchalik esa "erkin portlar" tashkil qilingan, bu hududda tovarlar uchun xaridorlar topilgunicha, tovarlarga boj to'lovlari to'lanmasdan omborlarda saqlanishi mumkin bo'lgan. Dastavval "erkin portlar" ichki bozorni rivojlantirish uchun tashkil qilingan, keyin esa xalqaro savdoning rivojlanishiga qo'shilish maqsadida tashkil qilingan. "Erkin portlar" Genuyada (1595 y.), Venetsiyada (1661- y.), Marselda (1669 y.), Rossiyada- Odessada (1817 y.), Vladivostokda (1862 y.), Batumida (1878 y.) tashkil qilingan.² Ular porto-franko nomi bilan mashhur. XX asrning boshlarida porto-frankolar Maltada, Sulinda, Singapurda, Adeneyada mavjud edi. Ikkinchi Jahon urushigacha 26 mamlakat va hududlar ishtiroki bilan 75ta erkin portlar va erkin savdo hududlar tashkil qilingan.

¹ Р.И. Зименков. Свободные экономические зоны. Уч.пос.-М.: Юнити2005. 5 стр

² http://www.vlasovaandpartners.ru/ru/pub7_sez.shtml Р. Лахреев СЭЗ

Erkin iqtisodiy hududlarning ikkinchi bor tug'ilishi, paydo bo'lishi XX asrning ikkinchi yarimlariga to'g'ri keldi. Ular rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda keng tarqala boshlagan, ularning izidan esa, anchagina kechikishlar bilan o'tish iqtisodiyotida bo'lgan mamlakatlarda tuzila boshladi. Bunga mustamlaka tuzumlarining qulashi natijasida iqtisodiy rivojlanish yo'liga yuzga yaqin mustaqil davlatlarning qo'shilishi; o'nlab integratsiya uyushmalarining tashkil topishi; yangi industrial mamlakatlarning jahon xo'jaligiga faol qo'shilishi; jahon sotsialistik tuzumining qulashi; ilmiy-texnika inqilobi rivojlanishi, dunyoda raqobatning va iqtisodiy jarayonlar erkinlashuvining kuchayishi kabi omillar sababchi bo'lgan.

Erkin iqtisodiy hududlar faoliyat yuritayotgan 123 ta mamlakatlar orasida eng ko'pi AQShga to'g'ri keladi. AQShda erkin iqtisodiy hududlarning soni 240 tadan oshadi.³ Erkin iqtisodiy hududlar dunyoning ko'plab davlatlarida keng yoyildi. 90-yillarning o'rtalarida dunyoda turli xildagi 4,5 mingdan ortiq EIH mavjud edi. G'arb mutaxassilarining fikricha 2010 yilga kelib jahon tovar aylanmasining 40% i turli erkin iqtisodiy hududlarda ro'y beradi. Xalqaro korporatsiyalar o'z faoliyatlari uchun imtiyozli sharoitlarni qidirib, erkin iqtisodiy hududlarni ko'p foyda olish mumkin bo'lgan joy sifatida ko'rishadi. Yirik xalqaro korporatsiyalar erkin iqtisodiy hududlarda o'z ishlab chiqarishlarini tashkil qilishni ekspansiyalarining muhim yo'nalishi deb hisoblaydilar.

Shunday qilib, erkin iqtisodiy hudud - bu mamlakat rivojlanishi-ning iqtisodiy, ijtimoiy, demografik mezonlari va ehtiyojlari bilan belgilangan, maxsus maqsadli yo'naltirilgan chegaralangan bir qismidir⁴. Bunday hudud davlatning turli xil boshqaruv pog'onalari va hokimiyat organlari tomonidan, chet el investorlariga erkin iqtisodiy hududlar turiga muvofiq tarzda taqdim etiladigan iqtisodiy imtiyozlarning muayyan to'plami bilan tavsiflanadi. Erkin iqtisodiy hudud maxsus tashkil etiladigan yoki oldindan mavjud respublika yoki mintaqaviy tuzilmalar tizimida faoliyat yuritadi.

Investitsiyalarni loyihaviy moliyalashtirishda erkin iqtisodiy hududlarning quyidagi tavsifiy belgilarini ta'kidlab o'tish lozim:

- tashqi savdo (eksport-import bo'jarini pasaytirish yoki rad etish, tashqi savdo operatsiyalarini amalga oshirishning soddalashtirilgan tartibini joriy etish);
- fiskal, muayyan faoliyat turlarini soliqlar nuqtai-nazaridan rag'batlantirish. Imtiyozlar soliqqa tortiladigan bazaga (foyda yoki daromad, mulk qiymati va x.), uning ayrim komponentlariga (amortizatsion ajratmalar, ish haqi xarajatlari va x.), soliq stavkalari darajasiga, soliqqa tortilishdan vaqtinchalik yoki doimiy tarzda ozod etishga tegishli bo'lishi mumkin;
- moliyaviy, to'g'ridan-to'g'ri – byudjet mablag'lari va imtiyozli davlat kreditlari xisobiga, hamda egri – kommunal xizmatlarga past narx belgilash, ijara narxlarini pasaytirish, ko'rinishidagi turli xil subsidiyalar ko'rinishida;
- ma'muriy, korxonalarini ro'yxatga olishni va chet el fuqarolarini kirish-chiqishini soddalashtirish ko'rinishida.

³ <http://ivr.nm.ru/2001/rus/p0107/p010703.htm> Е.Неклюдова. СЭЗ.

⁴ Сергеев Е.Ю. Свободные экономические зоны // Сергеев Е.Ю. Международные экономические отношения. - М., 2000. – 1216.

Erkin iqtisodiy hududlar tashkil qilishda ikkita kontseptual yondoshish qo'llaniladi: hududiy va funktsional (nuqtali). Birinchi holatda hududdagi barcha rezident korxonalar xo'jalik faoliyatida imtiyozlardan foydalanadilar. Ikkinchi yondashish bo'yicha firma mamlakatning kaysi tumanida joylashishidan kat'iy nazar tadbirkorlik faoliyatining ma'lum ko'rinishlari uchun qo'llaniladigan imtiyozli rejimdan foydalanishi mumkin.

Birinchi yondashishga misol qilib, Xitoydagi erkin iqtisodiy hududlarni, «Manaus» hududi (Braziliya), rivojlanayotgan davlatlardagi eksport-ishlab chiqarish hududlarini ko'rsatish mumkin. Ikkinchi yondashishning natijasi bo'lib, offshor firmalari, «dyuti fri» magazinlari ko'rsatilishi mumkin.

1-jadval.

Erkin iqtisodiy hududlarning turlari⁵.

№	Savdoga yo'naltirilgan	Sanoat ishlab chiqarishga yo'naltirilgan	Texnik hududlariga yo'naltirilgan	Servis yo'naltirilgan
1	Erkin bojxona	Importni o'rnini bosuvchi	Texnopolis	Offshor
2	Bond omborlari	Eksport i.ch	Texnopark	Moliyaviy markazlar
3	Erkin port	Sanoat parklari	Yangi va yuksak texnologiyalarni rivojlantiruvchi hududlar	Bank xizmatlari
4	Erkin savdo hududi	Makiladoras		Turistik xizmatlar Ekopark

Investitsiyalarni loyihaviy moliyalashtirishda erkin iqtisodiy hududlarning eng oddiy ko'rinishlaridan biri erkin bojxona (bojsiz) hududlari hisoblanadi. Bu hududlar erkin savdo hududlari kabi birinchi avlod hududlariga kiradi. Bu hududlarda tranzit yoki kassignatsion omborlar, eksportga mo'ljallangan tovarlarni qadoqlash va kam miqdorda qayta ishlash bo'ladi. Bunday hududlarni ko'pincha bond omborlari yoki erkin bojxona hududlari deb ataladi. Erkin bojxona hududlari tovar olib kirish va olib chiqishda bojdan ozod qilinadi. Ular ko'plab mamlakatlarda mavjud.

Turli ko'rinishdagi erkin iqtisodiy hududlarning o'xshash tomonlari ularda tadbirkorlar uchun bojxona, moliyaviy, soliq imtiyozlari va umumiy rejimga nisbatan ustunliklar bo'lgan qulay investitsion iqlim mavjudligidadir.

Imtiyozlar to'rtta asosiy guruxga ajratiladi:

-Tashqi savdo imtiyozlari. Bu alohida bojxona-tarif rejimini kiritish (ekport-import bojlarini kamaytirish yoki bekor qilish) va tashqi savdo operatsiyalarini amalga oshirish tartibini soddalashtirish;

-Soliq imtiyozlari. Bunda faoliyatning ma'lum ko'rinishlari soliq imtiyolari orqali rag'batlantiriladi. Bu imtiyozlar soliq bazasi (daromad, mulk qiymati va x.k.), uning tarkibiy qismlari (amortizatsiya ajratmalari, ish xaqiga xarajat, transport), soliq stavkalarining darajasi, soliqqa tortilishdan doimiy va vaqtinchalik


⁵ Жадвал муаллиф томонидан тузилган.

ozod qilish masalalari;

-moliyaviy imtiyozlar. O'z ichiga turli shakldagi subsidiyalarni oladi. Ularga kommunal xizmatlarning arzonligi, er maydonlari va ishlab chiqarish binolari ijara xaqini kamaytirish, imtiyozli kreditlar kiradi;

-ma'muriy imtiyozlar; Korxonalarni ro'yxatdan o'tkazish va xorijiy fuqarolar kirib-chiqishini engillashtirish, shuningdek turli xizmatlar ko'rsatish maqsadida ma'muriyat tomonidan maxsus hududlar ajratilishi.

Investitsiya faoliyatini rivojlantirish va EIHLar tarqqiyoti uchun investitsiyalarni keng jalb etishda investitsiya muhitining o'rni katta. Investitsiya muhitiga ta'sir etuvchi omillarni quyidagi rasmda aks ettirish mumkin:



1-rasm. Investitsiya muhitiga ta'sir etuvchi omillar⁶.

2. Erkin iqtisodiy hududlarni barpo etishning xorij tajribasi

Ko'pgina mamlakatlarda faoliyat yurituvchi erkin iqtisodiy hududlar jahon xo'jaligidagi o'rnini mustahkamlab bormoqda.

O'zbekistonda "Erkin iqtisodiy hududlar to'g'risida" gi Qonuni qabul qilinganligi va Navoiy viloyati aeroport hududida erkin iqtisodiy zonalarni tashkil etilishi tufayli, bunday hududlarni tashkil etishning jahon, xususan Amerika tajribasi bilan tanishib chiqish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Hozirgi kunda Amerikada erkin iqtisodiy hududlarning uchta asosiy turi mavjud:

- tashqi savdo hududlari;
- tadbirkorlik hududlari;

⁶ Муаллиф томонидан тузилган

- texnologik parklar yoki texnopolislar.

Tashqi savdo hududlari.

Erkin savdo hududlari birinchi marotaba XIX asrda Shimoliy Evropada paydo bo'lgan.

AQShda bunday hududlar o'tgan asrning 30-chi yillarida paydo bo'lib, tashqi savdo hududlari deb nom olgan.

Bunday hududlar milliy hududning chegaralangan bir qismi bo'lib, ularda umumiy xo'jalik va tashqi iqtisodiy faoliyatga nisbatan imtiyozli tizim o'rnatilgan.

Boshqacha qilib aytganda, tashqi savdo hududlari – bu shunday savdo yoki savdo-ishlab chiqarish hududlariki, ular mamlakat ichida joylashgan bo'lishiga qaramasdan, bojxona, byudjet-soliq va moliyaviy tizimlar nuqtai nazaridan mamlakat tashqarisida joylashgandek ko'riladi.

Amaldagi qonunchilikka muvofiq, AQSh hududida faoliyat yurituvchi tashqi savdo hududlari quyidagilarga ajratiladi:

- umumiy foydalanish hududlari;

- maxsus hududlar (subhududlar).

Umumiy foydalanish hududlari, odatda, port va aeroportlar hududida AQSh bojxona xizmati vakolatlaridan tashqarida joylashgan bo'ladi. Namunaviy umumiy foydalanish hududida tovar va mahsulotlarni saqlash uchun mo'ljallangan ijaraga beriladigan maydonlar hamda barcha transport turlarini qabul qilish imkoniyatiga ega distribyutorlik markazi joylashgan bo'lishi lozim.

Maxsus hududlar (subhududlar) faoliyat doirasi umumiy foydalanish hududlari doirasidan chiqib ketadigan va bitta is'temolchiga yo'naltirilgan yirik kompaniyalar manfaatini ko'zlagan holda tashkil etiladi. Bunday hududlar umumiy foydalanish hududlari boshqaruvining qarori bilan, biror xususiy kompaniya tomonidan yig'ish zavodlari yoki turli sanoat ishlab chiqarishlarini tashkil etish uchun yaratiladi.

Subhududlar mavqei umumiy hududlar mavqeiga nisbatan ikkilamchi bo'ladi va odatda, mavjud ishlab chiqarishlarga beriladi. Texnik jihatdan subhududlar umumiy hududlarning bir qismi bo'ladi, ammo hududiy jihatdan ulardan uzoqda joylashgan bo'lishi mumkin. Subhududlarni yaratish eksport salohiyatini rivojlantirish va import o'rnini bosuvchi ishlab chiqarishlarni yo'lga qo'yish maqsadlarini ko'zlaydi.

AQShda erkin iqtisodiy hududlar keng tarqalgan. Bunga birinchi navbatda, ushbu hududlarda faoliyat yurituvchi kompaniyalarga beriladigan imtiyozlar xizmat qiladi.

Ularning asosiylari quyidagilar:

- bojxona bojlari va ichki soliqlar olinishi lozim bo'lsa, tovarlar tashqi savdo hududidan bojxona hududiga o'tkazilgan va ichki iste'mol uchun mo'ljallangan bo'lsagina to'lanadi;

- hududda mavjud bo'lgan tovarlarga bojxona bojlari qo'yilmaydi va ulardan aktsiz yig'implari olinmaydi. Kompaniyalar va ayrim shaxslarning hududda joylashgan xususiy mulki federal va mahalliy soliqlardan ozod etiladi;

- tashqi savdo hududlaridan uchinchi mamlakatlarga eksport qilinadigan tovarlardan bojxona bojlari va ichki soliqlar olinmaydi;

- eksport qilinadigan tovarlar, qo'riqlashning yaxshi ishlaydigan tizimi tufayli katta sug'urta xarajatlarini talab qilmaydi;
- tovarlar eksportidagi bojxona jarayoni protsedurasi minimumga olib kelingan.

AQShga import qilinishi ta'qiqlangan tovarlar hududlar maydoniga ham kiritilmaydi. Hududda tegishli qayta ishlanishdan o'tishi lozim bo'lgan va keyinchalik AQSh bojxona xizmati talablariga javob bergan holda AQShga import qilinishi mo'ljallangan tovarlar bundan mustasno.

Tashqi savdo hududlaridan AQSh hududiga tovarlarni import qilishda bojxona boji hududga kelgan tovarga yoki uni qayta ishlash davomida chetdan kirib kelgan tarkibiy qismlarga to'lanishi mumkin, bu bilan importyorga kichikroq bojni tanlash huquqi beriladi.

Kemasozlik, avtomobilsozlik, sanoat va ishxona uskunalari, neft mahsulotlarini hamda tashqi savdo hududlarida yig'ladigan yoki ishlab chiqiladigan mahsulotlar importyorlarga o'z mahsulotini AQSh hududiga kiritishda inversirlangan (teskari) tarifni to'lashdan ozod etiladi.

Shunday qilib, mamlakat iqtisodiyotiga chuqur integratsiyalashgan tashqi savdo hududlari, uning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga muhim hissa qo'shadilar. Bu, birinchi navbatda, milliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash, milliy mahsulotlar raqobatbardoshligini oshirish uchun imtiyozli soliq tizimi orqali amalga oshiriladi.

Tadbirkorlik hududlari.

Erkin iqtisodiy hududlarning ushbu turiga, tashqi savdogaga bevosita xizmat ko'rsatmaydigan hududlar kiradi. Ushbu holatda bojxona imtiyozlari ikkinchi darajali bo'lib, asosiy rolni turli xil soliq, moliyaviy va ma'muriy rag'batlantirishlar o'ynaydi.

AQShdagi tadbirkorlik hududlari tadbirkorlar faoliyatini yanada erkinlashtirish va keng moliyaviy imtiyozlar berish orqali turg'unlik (ya'ni qoloq) tumanlarida o'rta va kichik biznesni rivojlantirish maqsadida yuzaga keladi.

Yuridik mavqeiga ko'ra, AQShdagi tadbirkorlik hududlari uch xil bo'ladi:

- federal;
- shtat;
- mahalliy darajadagi hududlar.

Ushbu hududlar tegishli pog'ona hukumat organlari qarori bilan paydo bo'ladi. Tadbirkorlik hududlari, odatda, ishsizlikning yuqori dara-jasiga ega bo'lgan yirik shaharlarning turg'un yoki qoloq tumanlarida joylashgan bo'ladi. Ularning maydoni 2.5-5 kv.m gacha bo'lib, chegaralari to'silmagan bo'ladi va ular ushbu hududlarda joylashgan kompaniyalarning mavqei bilangina ajralib turadi. Ko'pchilik shtatlarda tadbirkorlik hududlari 10-20 yilga, federal hududlari ham 20 yil muddatga tashkil etiladi, ammo bu muddat uzaytirilishi ham mumkin.

2 -jadval

EIHLarning mintaqalar bo'ylab joylashishi

Mintaqalar	Davlat EIH	Xususiy EIH	Jami
Amerika	146	394	540

Osiyo Tinch okeani mintaqalari	435	556	991
Afrika mintaqasi	49	65	114
Yaqin Sharq va Shimoliy Afrika	173	40	213
Markaziy va Sharqiy Evropa, Markaziy Osiyo	69	374	443
Jami	872	1429	2301

Ishlab chiqarishni rivojlantirish va bandlikni oshirish maqsadida hududlarda faoliyat yurituvchi AQSh kompaniyalariga turli xil imtiyozlar beriladi. Federal darajada bu – qurilish va tamirlash ishlarida to’lana-digan soliqlarga 5% lik chegirma, har bir qo’shimcha ishga qabul qilingan ishchi uchun soliq chegirmalari, kapital qiymatini ko’paytirishga bo’lgan soliqning bekor qilinishidir. Turli shtatlar darajasida bu – korxonalar daromadlari solig’iga 50% lik chegirma (Konnektikut shtati), uskunalar sotishda savdo solig’idan 100% lik chegirma (Luiziana shtati), qurilish materiallari sotishda 100% lik chegirma (Kanzas shtati), asosiy kapitalga (Virjiniya shtati). Barcha soliq imtiyozlarining 70% idan ortig’ini tadbirkorlik hududlarida ishchi o’rinlarini tashkil etuvchi tadbirkorlarga beriladi.

Texnologik parklar va texnopolislar.

Bunday parklar (texnik-joriy etish hududlari) fan va ishlab chiqarish integratsiyasining yangi samarali shaklidir. Bu hududlarda innovatsiyaviy faoliyat va yangi texnologiyalarni ishlab chiqish bilan band firma va korxonalar joylashgan bo’ladi.

Odatda, ular ilmiy laboratoriyalar va ishlab chiqarish xonalarining hududiy jamlanishidan iborat bo’lib, ular istiqbolli ilmiy va texnik g’oyalarni ishlab chiqish bilan shug’ullanadigan venchur firmalarga imtiyozli shartlarda ijaraga beriladi. Tashqi savdo va tadbirkorlik hududlaridan farqli ravishda texnologik parklarni yaratish uchun hukumat organlarining ruxsati talab qilinmaydi.

AQShda texnoparklarning ikkita turi mavjud:

- ayrim shaxslar yoki xususiy tashqilotlar tashabbusi bilan tashkil qilingan;
- ayrim shtatlar hukumatlarining qarori bo’yicha tashkil qilingan texnoparklar.

Ikkinchi turdagi texnoparklar hozirgi kunda ham yaratilmoqda, ammo eng mashhur va samarali texnoparklar birinchi turga mansub. Ulardan quyidagilarini ajratish mumkin:

- “Silikon vodiysi” (Kaliforniya);
- “128 boston yo’nalishi” (Massachutis texnologik universiteti va Garvard universiteti yaqinida);
- “Uchburchak - park” (Shimoliy Karolina).

Ushbu uchta texnopark bunday markazlarning nafaqat AQSh, balki chet

elda ham tashkil etilishining modellari sifatida xizmat qiladi.

Texnoparklarni moliyalashtirish turli xil manbalardan amalga oshiriladi:

- universitet va xayriya jamg'armalari tomonidan ta'sis etilgan fondlar hisobidan;

- mahalliy hokimiyat mablag'lari hisobidan;

- federal muassasalar va vazirliklar mablag'lari hisobidan;

- sanoat firmalari mablag'lari hisobidan

- shaxsiy mablag'lar hisobidan.

Texnoparklarning ayrimlari daromad asosida faoliyat yuritisa, ayrimlari daromadsiz tashkilotlar hisoblanadi.

Xitoy iqtisodiy mo'jizasining asosiy tashkil etuvchisi bu erkin iqtisodiy hududlarning mavjudligidir. Xitoydagi erkin iqtisodiy hududlar "oshkoralik siyosatini"ni o'tkazish natijasida paydo bo'ldi. Ushbu yo'nalishdagi birinchi natija sifatida mamlakat janubida to'rtta hudud (Shenjen, Chjuxay, Shantau, Syamen) tashkil etilishini ta'kidlash mumkin. 2002 yil boshiga kelib Xaynay va Pudun hududlari hisobiga ular oltita bo'ldi.

Iqtisodiy hududlardan tashqari butun Xitoyda 30 dan ko'p iqtisodiy va texnik rivojlanishning davlat hududlari, 14 ta ochiq portlar, erkin savdo va bojxona hududlari faoliyat yuritmoqda.

3-jadval

EIHLarning Xitoy eksportidagi ulushi

Yillar	Xitoy EIHida* eksport hajmi jami mlrd. \$	Xitoy mamlakati umumiy eksporti jami mlrd. \$	EIHning* Xitoy eksportidagi ulushi % da
1978	0,351	-	-
1990	10,733	62,9	17,1%
2000	46,685	249,2	18,7%
2006	176,17	969,07	18,2%
2007	218,324	1218,01	17,9%
2008	215,707	1429	15,1%
2009	240,873	1194	20,1%
2010	257,741	1506	17,1%

O'z mamlakati hududida erkin iqtisodiy hududlarni yaratib Xitoy bir qancha foydali tomonlarga ega bo'ladi:

- birinchidan, ushbu yo'l bilan Xitoy hukumati chet el investitsiyalarini jalb etish uchun qulay imkoniyatlar va sharoitlar yaratadi;

- ikkinchidan, chet el investitsiyalaridan tashqari mamlakatga yangi texnologiyalar va etakchi texnika kirib keladi;

- uchinchidan, ishchi o'rinlari etishmaslik muammosi qisman hal qilinadi;

- to'rtinchidan, tabiiy resurslardan samaraliroq foydalaniladi;

- beshinchidan, eksport foydasi ancha oshadi;
- va nihoyat, oltinchidan, “maxsus hududlar”ning tezroq rivojlanishi, butun iqtisodiyot taraqqiy etishiga olib keladi.

Erkin iqtisodiy hududlar ko'plab omillar ijobiy ta'sir ko'rsatadi:

- qulay geografik joylashuv;
- ishchi kuchining ko'pligi va arzonligi;
- iqtisodiy imtiyozlar;
- hududlar rivojlanishi uchun mamlakatlardan resurslarning kirib kelishi.

Erkin iqtisodiy hududlarda ishlab chiqarilayotgan tovarlarning 50% igacha eksport qilinadi. Erkin iqtisodiy hududlarda asosan, qayta ishlash sanoati va ilmiy-texnik ishlanmalar sohasi rivojlantiriladi.

Katta miqyosda amalga oshirilayotgan erkin iqtisodiy hududlar rivojlanishi munosabati bilan Xitoyda majmuaviy hududlar yaratilishi boshlandi. Bunday hududga misol tariqasida 1998 yilda Shanxayda yaratilgan Pudun rivojlanish hududi tashkil etilib, u erda erkin savdo hududlari, moliyaviy-savdo, sanoat va ilm-fanga ixtisoslashgan tumanlar mujassamlashgan. Pudun sanoat hududida bir necha yuz obektlar barpo etildi. Bu erga Yaponiya, Frantsiya, Singapur, AQSh va Kanadadan investitsiyalar kirib keldi.

3. Investitsiyalarni loyihaviy moliyalashtirishda erkin iqtisodiy hududlarni qo'llash imkoniyatlari

O'zbekistonda erkin iqtisodiy hududlarni tashkil qilishda, birinchi navbatda, tegishli hududlar aniqlab olinishi lozim. Erkin iqtisodiy hududlar qoloq va depressiv tuman va hududlarda tashkil etiladi, tashkil etilishdan maqsad ushbu hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash dir. Avvalambor, qoloq tumanlar ajratib olinishi, ulardagi infratuzilma holati, aholi ish malakasi va qobiliyati tahliul etilishi lozim.

Umuman, erkin iqtisodiy hududlarni samarali tashkil etishga quyi-dagi omillar ta'sir ko'rsatadi:

- hududlardagi infratuzilma va hududlarning sohalar bo'yicha imkoniyatlari;
- aloqa va transport kommunikasiyalarining yaxshi yo'lga qo'yilganligi;
- zarur infratuzilma: suv, elektr ta'minoti;
- tijorat infratuzilmasi: bank, konsalting, yuridik va sug'urta xiamatlari mavjudligi;
- hududlarda ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarning holati;
- mavjud sanoat bazalari;
- geografik joylashuvi va boshqalar.

O'zbekistonda erkin iqtisodiy hududlar mavjud emas. Erkin iqtisodiy hududlarni tashkil etish bo'yicha respublikamiz etarli tajribaga ega deb bo'lmaydi. Shuning uchun, O'zbekistonda erkin iqtisodiy hududlarni tashkil etishda bu hududlar samarali tashkil etilgan va faoliyat yuritayotgan hamda mamlakat iqtisodiyoti rivojida ijobiy natijalarga erishgan davlatlar tajribasidan foydalanish zarur bo'ladi. Bu kabi davlatlarga misol tariqasida AQSh, Evropa davlatlari, Xitoy va boshqa shu kabi ri-vojlangan va rivojlangan davlatlarni ko'rsatishimiz mumkin.

Chunki, ushbu davlatlar erkin iqtisodiy hududlari iqtisodiyot rivojiga salmoqli ulush qo'shishgan, aholi turmush darajasini yaxshilashda katta rol o'ynagan.

Xorij tajribasini O'zbekistonda qo'llash imkoniyatlarini tahlil qilar ekanmiz, birinchi navbatda, quyidagi xorij tajribalarini o'zlashtirish maqsadga muvofiq:

- birinchidan, erkin iqtisodiy hududlar bo'yicha qonunchilik tizimi ishlab chiqilishi lozim. Avvalambor, hududlar bo'yicha tegishli huquqiy-meyoriy hujjatlar, normativlar, kelishuv va bitimlar, shartnoma va boshqa shu kabi hujjatlar bazasi yaratilishi lozim. Bu qonunchilik bazasi tomonlarning huquq va majburiyatlarini; ularning manfaatlari, erkinliklari va amal qilishi shart bo'lgan qonun-qoidalarini; hudud rezidentlari kafolatlarini; hududlar bo'yicha qo'yiladigan talablarni; erkin iqtisodiy hududlarga kirish, chiqish va ularda faoliyat olib borish tartibini to'liq va har tomonlama yoritib berishi lozim. Va yana bir jihat, qonuniy baza sodda va hamimga birday tushunarli ravishda yaratilishi lozim;

- ikkinchidan, erkin iqtisodiy hududlardagi boshqaruv tizimining xorij tajribasi. Hududlarni boshqarish juda muhim ahamiyat kasb etadi, chunki boshqarish tajribasi orqali ushbu hududlar rivojlanishini, ularning samarali faoliyat yuritishini ta'minlash mumkin. Hududlar bo'yicha boshqaruv tizimini tashkil etishda Mamuriy kengash, Bosh direksiya hamda boshqaruv organlari tashkil etilishi, ularning vakolatlari va faoliyat yuritish tartibi dasturi ishlab chiqilishi kerak;

- uchunchidan, aniq belgilanishi bo'yicha imtiyozlar tizimini isloh qilishning xorij tajribasini o'rganish va amaliyotda qo'llash zarur. Chunki, erkin iqtisodiy hududlarni boshqa hududlardan asosiy farqli jihatlaridan biri, ulardagi imtiyozli tizimning mavjudligidadir. Hududlardagi omtiyozli soliq va bojxona tizimi, moliyaviy imtiyozlar va ma'muriy imtiyozlar, tashqi savdo imtiyozlarining muqobil tartibi tuzib chiqilishi zarur. Bu imtiyozlarni taqdim etishda har ikkala tomonning ham, ya'ni hudud rezidentlari va investorlarining ham hamda davlatning ham manfaatlari hisobga olinishi zarur;

- to'rtinchidan, erkin iqtisodiy hududlarning respublika ijtimoiy-iqtisodiy imkoniyatlariga mos shakl va turlarini tashkil etish bo'yicha xorij tajribasi. Buning uchun O'zbekistonda qoloq sohalar aniqlab olinishi lozim, yana respublikamiz imkoniyatlari tahlil etilishi zarur. Zamonaviy jahon xo'jaligi amaliyotida erkin iqtisodiy hududlarning 26 tacha shakl va turlari mavjud. Lekin bu hududlarning hammasini ham tashkil etish kerakli samara va natijani bermaydi, aksincha hududlarning muddatdan oldin inqirozga ushrashiga olib kelishi mumkin. Shuning uchun, respublika imkoniyatlaridan va albatta, iqtisodiyot oldida turgan ustuvor vazifalardan kelib chiqqan holda erkin iqtisodiy hududlarning mos shakl va turlari tanlab olinishi kerak. Masalan, O'zbekiston sharoitida "soliq gavanlari"ni tashkil etish umuman mumkin emas, chunki "soliq gavanlari", asosan, dengiz portlarida tashkil etilib, o'sha portlar hududlari doirasida imtiyozlar beriladi. Bizda esa dengiz portlari umuman mavjud emas;

- beshinchidan, erkin iqtisodiy hududlarning faoliyat yo'nalishi, ulardagi ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish turlari, umuman, iqtisodiy faoliyat shakl va turlari tartibi, ularning talablari aniq belgilab olinishi shart. Yani, har bir hudud o'ziga xos jihatlari bilan boshqa hududlardan ajralib turishi lozim, har bir

hududning o'z faoliyat tartibi va talablari bo'lishi kerak. Investorlar ham hududdagi tartib va talab larni hisobga olgan holda qaysi hududda faoliyat ko'rsatish qarorini qabul qiladi. Xorij tajribasida, misol uchun, ma'lum bir hudud faqat ishki bozor uchun zaruriy mahsulotlarni ushlab chiqaradi va bu hududda faqat ichki bozor uchun imtiyozlar beriladi. Boshqa bir hududda esa faqat eksportga yo'naltirilgan mahsulotlar ushlab chiqarish talabi qo'yiladi, bu hududda eksport jihatidan soliq va bojxona imtiyozlari qo'llaniladi. Boshqa bir hudud turizm sohasi bo'yicha, bank sohasi bo'yicha, offshor markazlari, ekologik-iqtisodiy, ilmiy-texnik va boshqa shu kabi sohalar bo'yicha erkin iqtisodiy hududlarda faoliyat yuritishlari mumkin va ushbu sohalarga tegishli imtiyozlarga ega bo'lishadi. Masalan, ilmiy-texnik sohalarda faoliyat yuritadigan kompaniyalar erkin turizm hududlarida faoliyat yuritishi mantiqqa ziddir, shuning uchun ular uchun alohida, texnoparklar yoki texnopolislar tashkil etilishi lozim. AQSh va Xitoyda eng asosiy erkin iqtisodiy hududlardan biri bo'lib, aynan mana shu texnopark va texnopolislar hisoblanishgan;

- yana bir jihat, bu erkin iqtisodiy hududlardagi erkinlikning mavjudligi hisoblanadi. Bular faoliyat erkinligi, qarorlarni qabul qilish erkinligi, moliyaviy hisob-kitoblarni yuritish erkinligi, tashqi iqtisodiy aloqalarni o'rnatishdagi erkinliklar va boshqalar. Hudud rezidentlari va investorlariga erkinlik berilishi shart, ya'ni bu erkin iqtisodiy hududlardagi davlat aralashuvi minimallashtirilishi lozim. O'z nomidan kelib chiqib turibdiki, bu hududlar erkin iqtisodiy hududlardir. Xorij tajribasi shuni ko'rsatadiki, bu hududlardagi faoliyat erkinliklari keng ravishda investorlarning kirib kelishiga sabab bo'lgan. Erkinlik bo'lishi bu hududlarda investorlar orasida raqobat kuchayishiga olib keladi. Biz bilamizki, raqobat iqtisodiy rivojlanishni ta'minlovchi omillardan biridir. Raqobat mavjud bo'lsa, har bir korxonada o'z faoliyatini juda mustahkam tarzda tashkil etishga harakat qiladi, albatta, sifatli, arzon, jahon andozalariga mos raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishga intiladi. Shu tufayli, hududlardagi erkinlik ta'minlanishi lozim.

4-jadval

“Navoiy” erkin industrial-iqtisodiy zonasida qo'llaniladigan imtiyozlar

Investitsiya summasi mln. Evro	Imtiyozli yillar	Qo'shimcha imtiyoz amaldagi stavkadan 50%	Qo'shimcha imtiyoz beriladigan yil
3 < 10	7 yilgacha	-	-
10 < 30	10 yilgacha	Foyda solig'i, yagona soliq to'lovi	5 yil
30 < + ∞	15 yilgacha	Foyda solig'i, yagona soliq to'lovi	10 yil

EIIZda faoliyat yuritish uchun to'g'ridan-to'g'ri investitsiya olib kirgan xo'jalik sub'ektlari er solig'i, mulk solig'i, foyda solig'i, obodonchilik va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i, yagona soliq to'lovi, Respublika yo'l

jamg'armasi va Respublika maktab ta'limini rivojlantirish jamg'armasiga majburiy to'lovlardan ozod etiladi

O'zbekistonda ham quyidagi asosiy erkin iqtisodiy hududlarni tashkil etish maqsadga muvofiq:

- tashqi savdo hududlari;
- tadbirkorlik hududlari;
- texnopark va texnopolislar;
- erkin turizm hududlari;
- erkin eksport hududlari;
- erkin ishlab chiqarish hududlari;
- erkin sanoat hududlari;
- erkin qo'shma tadbirkorlik hududlari;
- offshor markazlari;
- ekologik-iqtisodiy hududlar.

Ammo, rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, yuqoridagi hududlarni alohida tashkil etilishi juda ham ko'p va murakkab jarayonlarni, muammolarni keltirib chiqaradi. Yana bir jihati juda katta miqdordagi xarajatlar amalga oshirilishi yuzaga chiqadi. Shuning uchun yuqoridagi va boshqa erkin iqtisodiy hududlar iqtisodiy hududlar ma'lum guruhlarga bo'linib tashkil etiladi, ya'ni xorij tajribasida erkin iqtisodiy hududlarning uchta asosiy, yirik guruhi mavjud.

Bular:

- tashqi savdo hududlari yoki erkin savdo hududlari;
- tadbirkorlik hududlari;
- texnopark va texnopolislar.

Tashqi savdo yoki erkin savdo hududlari milliy hududning bir qismi bo'lib, ularda umumiy xo'jalik va tashqi iqtisodiy faoliyatga nisbatan imtiyozli tizim o'rnatilgan. Tashqi savdo hududlari – bu shunday savdo yoki savdo-ishlab chiqarish hududlariki, ular mamlakat ichida joylashgan bo'lishiga qaramasdan bojxona, byudjet-soliq va moliyaviy tizimlar nuqtai-nazaridan mamlakat tashqarisida joylashgandek ko'riladi. Ularning ikki turi mavjud:

- umumiy foydalanish hududlari;
- maxsus hududlar (subhududlar).

Umumiy jihatdan esa, tashqi savdo yoki erkin savdo hududlarga quyidagi hududlar jamlangan:

- bojxona hududlari;
- bojsiz savdo hududlari;
- erkin savdo hududlari;
- tashqi savdo hududlari va boshqalar.

O'zbekistonda tashqi savdo hududlar Toshkent, Farg'ona vodiysi va Navoiy viloyatlarida tashkil etilishi mumkin. Chunki bu viloyatlarda infratuzilma bir muncha rivojlangan, aloqa va transport kommunikasiyasi yaxshi yo'lga qo'yilgan. Yana bir jihat, Farg'ona eng ko'p aholi istiqomat qiladigan viloyat hisoblanadi. Toshkent va Navoiy esa haqiqatdan ham sanoati rivojlangan, tijorat va zaruriy infratuzilma rivojlangan, aholi ish malakasi va qobiliyati yuqori bo'lgan

viloyatlardir. Navoiy viloyati resurslarga boy bo'lganligi sababli, bu erda eksportga mo'ljallangan engil sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish o'zini oqlaydi. Toshkent bu respublika bo'yicha rivojlanish markazidir, shuning uchun Toshkentda nafaqat tashqi savdo hududlarini, balki boshqa erkin iqtisodiy hududlarning shakl va turlarini tashkil etish mumkin. Bu hududlardagi asosiy e'tibor eksportga yo'naltirilgan va import o'rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarilishiga qaratilishi lozim.

Demak, tashqi savdo hududlarini tashkil etish orqali yuqoridagi raqamlar yanada oshishi, ya'ni eksport salohiyati oshishi ta'minlanadi, valyuta tushumi o'sadi. O'zbekiston eksport mahsulotlarini ishlab chiqarish potentsiali juda yuqoridir, qishloq xo'jaligi, engil va og'ir sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun barcha shart-sharoitlar mavjud, eng muhimi, O'zbekiston resurslarga boy davlat, bu esa o'z navbatida, chet ellik hamkorlar uchun juda ijobiy omildir.

Tadbirkorlik hududlari tashqi savdoga bevosita xizmat ko'rsatmaydi. Bu hududlarda bojxona imyiyozlari mavjud emas. Tadbirkorlik hududlari tadbirkorlik faoliyatini yanada erkinlashtirish va katta moliyaviy imtiyozlarni berish orqali qoloq tuman va hududlarda biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish maqsadida tashkil etiladi. Bu hududlarda milliy va chet el investitsiyalarini keng ko'lamda tadbirkorlik sohasiga jalb etish maqsadida qulay shart-sharoitlar yaratiladi. Bu kabi hududlar ishsizlik yuqori bo'lgan tumanlarda tashkil etilishi lozim. Lekin bu kabi hududlarni faqatgina qoloq tumanlarda tashkil etish xato bo'ladi. Masalan, Toshkent viloyatida tashkil etilishi uchun barcha shart-sharoitlar hamda infratuzilma mavjud. Hamda, Toshkentda tashkil etilgan tadbirkorlik hududlari tez muddatlarda o'zini oqlashi va kutilgan natijalarga erishishi mumkin. Tadbirkorlik hududlari respublikamizning deyarli barcha viloyatlarida tashkil etilishi mumkin va bir tomondan zarurdir. Lekin, bu mablag' va raqobat jihatlaridan mumkin emasligi tufayli, markaziy tadbirkorlik hududlari tashkil etilishi lozim. Yani, Toshkent viloyati, Jizzax va Sirdaryo viloyatlari uchun bitta markaziy hudud tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Qahqadaryo va Surxondaryo viloyatlari ham birlashtiriladi, undan tashqari, Navoiy, Buxoro, Xorazm va Qoraqalpog'iston Respublikalari uchun yagona markaziy hudud tashkil etilishi mumkin. Farg'ona vodiysi uchun uchala viloyatning manfaatlarini hisobga oladigan tadbirkorlik hududi tashkil etilishi samaraliroq bo'ladi.

Jahon tajribasi bo'yicha, tadbirkorlik hududlari 10-20 yil muddatga tashkil etiladi.

Texnopark va texnopolislar fan va ishlab chiqarish integratsiyasining yangi samarali shakli hisoblanadi. Texnoparklarning asosiy yo'nalishi ilmiy-texnik ishlab chiqarish, innovatsion faoliyat, venchurli ishlab chiqarish va boshqalar hisoblanadi. Bu kabi hududlarda asosan, ilmiy laboratoriyalar tashkil qilinadi. O'zbekistonda texnoparklarning tashkil etilishi yangi zamonaviy va ilg'or texnika-texnologiyalar ishlab chiqarishdagi inqilobni yaratishga yordam beradi. Bizga malumki, zamonaviy ilg'or texnika-texnologiyalar respublikamizga import qilinadi. Chunki, respublikamizda bu borada rivojlanish juda sust. Jahon andozalariga javob beruvchi sifatli mahsulot ishlab chiqarish uchun esa albatta ilg'or texnologiyadan foydalanish shart. Shundagina, kuchli raqobatbardosh, doimiy o'z xaridoriga ega

bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish mumkin. Zamonaviy texnologiyalarni qo'llash uchun esa ularni chetdan import qilish, ya'ni xarid qilish kerak bo'ladi. Respublikamizda texnoparklar va texnopolislarning tashkil etilishi esa mavjud ko'pgina muammolarni hal etishga yordam beradi, ilg'or texnika-texnologiya bilan ta'minlaydi va milliy texnik inqilobni yaratishga asos bo'ladi. Xitoy tajribasiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, 1988 yilda mamlakatda yangi va zamonaviy texnologiyalar ishlab chiqarishga asoslangan "Pudun" hududi tashkil etildi. Bu hududni yaratishdan asosiy maqsad nafaqat Xitoyni yirik sanoat ishlab chiqarish markazlaridan biriga aylantirish edi. Hozirga kelib esa, haqiqatdan ham Xitoy dunyoning eng yirik texnika-texnologiyalar ishlab chi-qaruvchi mamlakatlardan biriga aylandi.

Xulosa

Hozirda ko'plab rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar o'z hududlarida qator erkin iqtisodiy zonalarni tashkil etish borasida keng chora-tadbirlarni amalga oshirmokdalar. Iqtisodiy hududlar turli shakllarda ta'sis etilishi mumkin: bojxona erkin iqtisodiy hududlari, erkin ishlab chiqarish hududlari, erkin tadbirkorlik hududlari, yangi va zamonaviy texnologiyalar hududi, erkin bank xizmati hududlari, turizm markazlari va boshqalar shular jumlasidandir.

Erkin iqtisodiy hududlarning boshqa savdo hududlaridan farq qiladigan tomoni shundaki, ular uchun hukumat tomonidan mamlakatning boshqa hududlarida mavjud bo'lmaydigan imtiyozlar yaratiladi, qolaversa, ularning faoliyati doimiy va ijobiy tarzda rag'batlantirib boriladi.

Bugungi kunda erkin iqtisodiy hududlarni tashkil etishda asosan:

- erkin iqtisodiy hududlarda, shuningdek, ulardan tashqari hududlarda ish kuchi bandligini to'la ta'minlash;
- investitsiyalarni jalb etish (asosan, erkin konvertatsiya qilinadigan valyutada);
- ishlab chiqargan mahsulotlari ichki bozorda mavjud bo'lgan mahalliy korxonalar faoliyatiga to'sqinlik qilmagan holda (ularni «qisib qo'ymagan» holda) eksport qilishga qodir bo'lgan yirik kompaniyalarni o'zida mujassam etgan iqtisodiy hududlar tashkil etishga erishish kabi maqsadlar ko'zda tutiladi.

Erkin iqtisodiy hududlar joylashtirilishi mumkin bo'lgan hududlar odatda qo'shni va xorijiy davlatlarga chiqish uchun qulay bo'lgan chegara maydonlarida, dengiz portlarida, yirik magistral tarmoqlarida (temir va avtomobil yo'llari, aeroportlarda) joylashadi, ularning faoliyati sanoat, ilm va madaniyat markazlari faoliyati bilan, shuningdek, katta miqdordagi tabiiy resurslar jam bo'lgan hududlar bilan uzviy bog'liq bo'ladi.

Ko'p hollarda erkin iqtisodiy hududlarning yangi o'zlashtirilgan xo'jalik hududlarida tashkil etilishi ham maqsadga muvofikdir. Ushbu hududlar rivojlangan sanoat ishlab chiqarishi va ijtimoiy infratuzilmaga ega bo'lmasada, hukumatning uzoq muddatli umumdavlat dasturlarini amalga oshirish borasidagi muammolarni hal etish jarayonida muhim strategik ahamiyat kasb etishi mumkin. Xususan, mamlakatning yoqilg'i-energetika va mineral - xom ashyo bazasini mustahkamlash kabi vazifalar shular jumlasidandir.

Jahon amaliyotiga nazar tashlaydigan bo'lsak, bir qator davlatlar o'z iqtisodiy rivojiga aynan EIHLarni tashkil etish orqali erishganlar.

EIHLarning mamlakat iqtisodiga ijobiy ta'sirini quyidagi aspektlardan ko'rish mumkin:

- chet ellik investorlar EIHLardagi ishlab chiqarishlarga nisbatan zamonaviy texnologiyalarni olib keladilar, ishlab chiqarish jarayoniga zarur bo'lgan yangi menedjment va boshqaruv usullarini singdiradilar;
- mahalliy ish kuchi yangi mehnat uslublarini o'zlashtiradi, ayniqsa yangi texnikani o'zlashtirish jarayonida;
- EIHLarga investitsiya qilayotgan kompaniyalar er va infratuzilma ob'ektalari

uchun to'lovlarni o'z zimmasiga oladi, va xizmat uchun haq to'laydi;

- mahalliy aholi turmush darajasi oshadi, daromadlar o'sadi, ichki bozorning yuqori sifatli mahsulotga ehtiyoji to'laroq qondiriladi;

- EIHlarda faoliyat ko'rsatayotgan kompaniyalar boshqalarga nisbatan yaxshiroq sharoitlarda bo'ladi. Bunday hududlarda ishlab chiqarish sarf-harajatlari, xom ashyo va materiallar olib kirish bilan bog'liq soliq va bojlar yo'qligi va ish kuchi nisbatan arzon bo'lganligi sababli ishlab chiqarilgan mahsulot raqobatbardoshligi oshadi. Odatda er va infratuzilma uchun to'lovlar ham boshqa hududlarnikidan pastroq bo'ladi.

- mahalliy bozor rivojlanadi, chunki EIHlarda band bo'lgan aholi to'lovlarni amalga oshirishga qodir;

- erkin iqtisodiy hududlar yaratilishi mazkur hududda tadbirkorlik faoliyati jonlashishiga yoki iqtisodiyotning ma'lum sohalari rivojlanishiga ko'mak bo'ladi. Shu bilan birga EIHlar rivojlanayotgan davlatlarda mavjud ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni to'liq echadigan vosita bo'lmasa ham, ular davlatlarning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Ko'p davlatlar uchun(Xitoy, Braziliya, Meksika) EIHlar savdo-iqtisodiy, ilmiy-texnik va ijtimoiy o'sish markazlariga aylandi. Bundan tashqari ochiq iqtisod modeli ishini namoyish qiladi, bu davlatlarning iqtisodlari dunyo iqtisodiga integratsiya yo'llarini aniqlab beradi.

EIHlar normal darajada faoliyat yuritishi uchun bajarilishi kerak bo'lgan eng muhim shartlar quyidagilar:

- mamlakatda siyosiy barqarorlikning qaror topishi, qulay investitsion muhitni shakillanishiga imkoniyat yaratadi. Jahon tajribasi ko'rsatganidek, siyosiy barqarorlik xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda hal qiluvchi hisoblanadi;

- xorijiy va mahalliy investorlarni rag'batlantiradigan va huquqlarini kafolatlaydigan puxta ishlab chiqilgan huquqiy bazaning mavjudligi;

- ishlab chiqarish hamda tijorat infratuzilmasining rivojlanganligi;

- eng muhim shartlardan biri – bu tabiiy geografik muhit;

- qulay iqtisodiy konyuktura – bu har qanday investorni o'ziga jalb qiluvchi kuch.

Uzbekiston Respublikasi iqtisodiy islohatlarni o'tkaza borib, xalqaro mehnat taqsimoti qulayliklaridan ko'proq foydalanishga intilmokda, chet el tadbirkorlari uchun qulay investiya muhitini yaratmokda.

Shunday ekan, agar O'zbekistonda EIHlar tashkil qilinsa va u barcha yuqorida aytib o'tilgan talablarga javob bersa, u holda xorij kapitallarini jalb qilish unchalik qiyinchiliklar tug'dirmaydi.

Tadqiqot natijalariga asoslangan holda, quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

1. EIHlarning soddaroq ko'rinishi hisoblanmish erkin savdo hududlari yoki turizm hududlarini tashkil etish maqsadga muvofiq bo'lar edi. Ularni unchalik katta bo'lmagan hududlarda ham tashkil etsa bo'ladi. Amaliy nuqtai nazardan qaraganda, bu normativ hujjatlar va zaruriy kelishuvlar o'tkazilish davrini nisbatan qisqartiradi, moliyalashtirish manbalarini topishda, personal tanlash va ularni o'qitishda, hududni tashkil etish va jihozlashda kamroq muammo tug'diradi. Shuning uchun mamlakatimizda turizm bo'yicha erkin hududlar tashkil etilsa,

mamlakatga kirib keladigan investitsiyalar hajmi sezilarli darajada ortadi va katta miqdorda harajat talab qilmaydi. Chunki, turizm hududlarini tashkil etish uchun O'zbekistonda deyarli barcha sharoitlar mavjud.

2. O'zbekistonning imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda, mamlakatimizda nafaqat, tarixiy-me'moriy yodgorliklar bo'yicha sayyohlik balki, eko va bioturizm, sog'lomlashtirish oromgohlari, faol sayyohlik yo'nalishlari, rafting turlari bo'yicha turizm hududlarini tashkil etish mumkin.

3. Tabiiy resurslarga boy bo'lgan, lekin qulay geografik joylashuvga ega bo'lmagan hududlarni bir qancha yirik kontsessiya uchastkalariga aylantirish lozim. Bu erlarda asosiy e'tibor an'anaviy EIHLardagi chet el investorlari uchun soliq imtiyozlariga emas, balki chet el kapitalini oqimini boshqa mahalliy sanoat sohalari va ijtimoiy sohaga jalb etilishini ta'minlovchi mahsulotni taqsimlash shkalasi yaxshi ishlab chiqilgan uzoq muddatli investitsion kontsessiya shartnomalarini tuzishga qaratilishi lozim.

Rivojlanayotgan davlatlarda ishsizlik darajasini kamatirishda ham bu zonalar ahamiyati katta. 21 asr boshida rivojlanayotgan davlatlardagi EIHLarda band bo'lgan Aytib o'tish lozimki, EIHLarda ishlayotgan chet el kompaniyalar bilan mahalliy kompaniyalar orasida aloqalar o'rnatilishi, o'z navbatida mahalliy ishlab chiqarishlarda ham bandlik darajasi oshishiga olib keladi. Eksportga qaratilgan zonalardagi ishlab chiqarish kompaniyalari subpodryadchik sifatida faoliyat qilib, eksportda o'z ishtirokini ta'minlaydi va shu bilan birga yangi ishchilar olish imkoniyati parallel tarzda o'sib boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent, “O'zbekiston” nashriyoti, 1992
2. “Erkin iqtisodiy hududlar to'g'risida” gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni, 1996 yil 25 aprel.
3. “Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida” gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni, 2000 yil 26 may.
4. “Chet el investitsiyalari to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni, 30.04.1998 y
5. “O'zbekiston Respublikasida xalqaro turizmning zamonaviy infratuzilmasini yaratish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining №210 Farmoyishi 1995 yil 3 iyun.
6. Vaxobov A. va boshqalar. Xalqaro moliya munosabatlari. Darslik.-T.: Sharq, 2003 y.
7. Vaxobov A. va boshqalar. Chet mamlakatlar moliyasi. Darslik.-T.: Yangi asr avlodi, 2003 y.
8. Vaxobov A., Ibrohimov A. Moliyaviy tahlil. Darslik.-T.: Sharq, 2002y.
9. G'ozibekov D.G'. Investitsiyalarni moliyalashtirish muammolari. T. 2002y., i.f.d. dissertatsiyasi avtoreferati.
10. Juraev A.S, Xo'jamqulov D.Yu., Mamatov B.S.«Investitsiya loyihalari tahlili» Toshkent «Sharq» nashriyoti 2003 yil 84-130 b.
11. Andrianov V.D. Spetsialnie ekonomicheskie zoni v mirovoy ekonomike / Andrianov V.D., Kuznetsov A.N. - M., 1998. - 59s.
12. Vishnyakov V. Pravovie voprosi razvitiya ekonomicheskix zon v Rossii // Dialog. - 2002. - N 11. - S.34-44.
13. Danko T., Z.Okrug. Svobodnie ekonomicheskie zoni v mirovom xozyaystve: Ucheb.posobie //Rossiyskaya ekonomicheskaya akademiya im. G.V.Plexanova. M.: Infra-M, 1998. – 168 s.
14. Druzik Ya.S. Svobodnie ekonomicheskie zoni v sisteme mirovogo xozyaystva: Ucheb.posobie. - Mn.: «FUainform», 2000,368 s.
15. Zimenkov R.I. Svobodnie ekonomicheskie zoni. Uch.pos.-M.: Yuniti-Dana 2005 g.
16. Ivchenko V.V. Svobodnie ekonomicheskie zoni v zarubejnix stranax i Rossii: Ucheb. posobie / Ivchenko V.V., Samoylova L.B. - Kaliningrad, 1999. - 167s.
17. Ignatov V., V.Butov. Svobodnie ekonomicheskie zoni. – M.: Os-89, 1997. –192s.
18. Komarov V.V. Zoni svobodnoy trgovli: krat. slov. - M.: Finansi i statistika, 2004. - 156s.
19. Lichagin A.I. Deyatelnost spetsialnix ekonomicheskix zon v usloviyax reform: sovremenniy kitayskiy opit. - N. Novgorod, 1998. - 178s.
20. Prognozirovaniye i strategii razvitiya osoboy ekonomicheskoy zoni Rossii: Mejevuz. sb. nauch. tr. / Kaliningr. gos. un-t; Pod red. Ivchenko V.V. - Kaliningrad, 2000. - 211s.

21. Svobodnie ekonomicheskie zoni v Latinskoy Amerike: [Sb. st.] / Ros. akad. nauk. In-t Lat. Ameriki. - M., 1996. - 82s.

22. Sergeev E.Yu. Svobodnie ekonomicheskie zoni // Sergeev E.Yu. Mejdunarodnie ekonomicheskie otnosheniya. - M., 2000. - S.162-169.

23. Surikov V.L. Osobennosti upravleniya svobodnimi ekonomicheskimi hududmi v Rossii. - SPb., 2000. - 108s.

24. Xlopetskiy A.P. Kaliningrad kak "zoni svobodi": vzglyad iznutri. - Kaliningrad, 2000. - 214s.

Internet saytlari

<http://ru.wikipedia.org/wiki/Uzbekistan>

<http://www.uzairways.com/index.aspx>

<http://www.ciriuc.ru>

http://portnews.ru/news_list